

**XALQARO HUQUQDA MANDATLI HUDUDLAR VA VASIYLIK
HUDUDLARI MASALASI**

Ochilov Asliddin Akramovich,

*Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro huquq va qiyosiy
huquqshunoslik fakultetining 2-bosqich talabasi*

E-mail: ochilovasliddin27@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola mandatli va vasiylik tayinlangan hududlar masalasi, ularning tarixini o'rganadi va ularning xalqaro huquqqa qanchalik mos kelishi va xalqaro huquqdagi o'rnini imkon qadar tadqiq etadi. Ularning Millatlar Ligasidagi tarixiy boshlanishidan tortib, Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi roligacha, biz ularga asos bo'lgan yuridik normalar va ularning ortidagi maqsadlarni o'rganamiz. Haqiqiy misollar va tadqiqotlardan foydalanib, ushbu hududlar va davlatlarda yuqoridagi ikki tizimning roli va turli xil oqibatleri ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, yuzaga kelgan mavjud muammolarning asorati hamda ularni qay tariqa bartaraf etish mumkinligi borasida fikr yuritiladi. Vasiylik kengashini qayta tiklash masalalari va uning ehtimoliy omillari haqida so'z yuritilib, ushbu tarixiy huquqiy institutlarning zamonaviy xalqaro huquqqa qo'shgan hissasi bilan xulosalanadi.

Kalit so'zlar: Mandatli hududlar, vasiylik tayinlangan hududlar, xalqaro huquq, dekolonizatsiya, o'z taqdirini o'zi belgilash, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, mustamlakachilik, suverenitet, inson huquqlari, Vasiylik kengashi, Millatlar ligasi, global tinchlik va xavfsizlik.

KIRISH

Mandatli va vasiylikka olingan hududlar xalqaro huquqning o'ziga xos jihati bo'lib, mustamlakachilikning tarixiy merosini va Birinchi va Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda xalqlar orasida alangalanib ketgan o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishni o'zida mujassam etgan. Xalqaro ahamiyatli mandatlar bilan mustamlakachi davlatlarga ishonib topshirilgan yoki Birlashgan Millatlar



Tashkilotining vasiylik tizimi nazorati ostidagi bu hududlar XX asr va undan keyingi davrlarning geosiyosiy landshaftini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi hamda shakllanayotgan xalqaro ommaviy huquq sohasida hudud, suverenitet va xalqaro huquq subyektilik maqomi to'g'risidagi yuridik qarashlarga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Mandatli hududlar tushunchasi sobiq Germaniya mustamlakalari va hududlarini boshqarish va nazorat qilish uchun ittifoqchi kuchlarga ishonib topshirgan Millatlar Ligasi paktidan kelib chiqqan. Bu mandatlar orqali mandat qilingan hududlar aholisining farovonligi va rivojlanishiga ko'maklashish, shu bilan birga ularni yakuniy o'zini-o'zi boshqarish yoki mustaqillikka tayyorlashni, pirovardida xalqaro huquqning to'laqonli subyektiga aylantirish maqsad qilingan. Xuddi shunday, BMT Nizomining XII bobiga muvofiq tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining vasiylik tizimi hamda vasiylik kengashi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, siyosiy ishtirok etish va inson huquqlarini hurmat qilish orqali vasiylik o'rnatilgan hududlarni o'zini-o'zi boshqarishga o'tishlariga nazorat qilib borishga harakat qildi. Bu orqali ozmi-ko'pmi BMT Nizomida va Ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan xalqaro prinsiplarni amalda to'laqonli qo'llashga urinish sifatida tarixda qoldi. Maqola davomida ushbu masalalarga iloji boricha atroflicha yoritishga harakat qilinadi.

ASOSIY QISM

Birinchi jahon urushi tugaganidan so'ng, Uchlar Ittifoqi va Rossiya imperiyalari qulagach, Antanta ittifoqchilari mag'lubiyatga uchragan kuchlarning mustamlakalarini nazorat qilishning anneksiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan alohida huquqiy tizimini o'rnatadi. Ushbu hududlar "bunday xalqlarning farovonligi va rivojlanishi insoniyat sivilizatsiyasiga bo'lgan muqaddas ishonchning asosidir" degan tamoyil asosida boshqarilishi nazarda tutilgan edi. Ushbu prinsipni amalga oshirish yo'li, bunday odamlarning vasiyligini "o'z resurslari, tajribasi yoki geografik joylashuvi tufayli" mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan rivojlangan davlatlarga topshirishdan iborat edi. Shartnoma ular tomonidan Millatlar Ligasi nomidan mandat asosida amalga oshirilardi. Millatlar Ligasi mandati Birinchi jahon urushidan keyin muayyan mustamlaka hududlar uchun xalqaro huquq bo'yicha



maxsus huquqiy maqomni ifodalagan va ular ustidan nazoratni bir mustamlakachi davlatdan boshqasiga almashtirishni o'z ichiga olardi. Ushbu mandat shartnomalari boshqariluvchi hududni Millatlar Ligasi nomidan nazorat etishning xalqaro miqyosda kelishilgan shartlarini belgilovchi huquqiy andoza bo'lib xizmat qilgan. Xalqaro shartnoma va milliy qonunchilikka asoslangan davlatlar konstitutsiyalarining elementlarini birlashtirgan ushbu mandatlar Millatlar Ligasining Doimiy Sudi tomonidan ariza bilan murojaat qilish va qaror qabul qilish huquqlarini ta'minlovchi ozchilik huquqlariga oid bandlarni ham o'z ichiga olgan.[1]

Mandat tizimi 1919-yil 28-iyunda kuchga kirgan Millatlar ligasi paktining 22-moddasiga muvofiq tashkil etilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin Millatlar Ligasi tarqatib yuborilishi bilan Yalta konferensiyasida qolgan mandatlar quyidagilar bo'lishi kerakligi belgilandii. Bundan buyon ushbu mintaqalar kelgusidagi muzokaralar va rasmiy kelishuvlarga o'rin qoldirgan holda Birlashgan Millatlar Tashkilotining vasiyligiga topshirilishi kerak edi. Millatlar Ligasining qolgan mandatlarining aksariyati (Janubiy G'arbiy Afrikadan tashqari) oxir-oqibat Birlashgan Millatlar Tashkilotining vasiylik belgilangan vasiylik tayinlangan hududlariga aylanadi. Mandat tizimining o'zagini ikkita boshqaruv tamoyili tashkil etdi, ular hududni anneksiya qilmaslik va uni "sivilizatsiyaning muqaddas ishonchi" sifatida hududni o'z xalqi manfaati uchun rivojlantirish maqsadida boshqarish edi.[2] Tarixchi Syuzan Pedersenning fikricha, mandatlardagi mustamlaka boshqaruvi boshqa yerlardagi mustamlaka boshqaruvidan unchalik farq qilmagan. Garchi Millatlar Ligasining shartnomasi bilan buyuk davlatlar mandatlarni boshqacha boshqarish majburiyatini olgan bo'lsa ham, asosiy farq shundaki, mustamlakachi davlatlar boshqa mustamlaka mulklariga qaraganda mandatlar haqida faqatgina rasmiyatchilik va siyosat yuzasidan boshqacha tonda gapirgan xolos.[3]

Millatlar Ligasi mandati berilgan barcha hududlar avvallari Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragan davlatlar (asosan Germaniya imperiyasi va Usmoniylar imperiyasi) tomonidan boshqarilgan.[4] Protektoratdan farqli o'laroq, mandat mandat egalarini (mandat berilgan davlatlarni) Millatlar Ligasining hududlar aholisi oldidagi majburiyatlarini bajarishga majbur qildi,



shuningdek, qul savdosi, qurol-yarog‘ va spirtli ichimliklar savdosi ham taqiqlandi. Mandatli hududda harbiy bazalar va istehkomlar qurish, tub aholidan armiya va flotlar yaratish taqiqlangan. Mandatlarni belgilash jarayoni ikki bosqichdan iborat edi: Oldindan boshqariladigan boshqaruv me‘zonini rasmiy ravishda olib tashlash; Vakolatlarning g‘olib davlatlar orasidan mandat egasiga o‘tkazilishini ta‘minlash.

Mandatga kirgan hududlar quyidagi kelishuv va bitimlarga muvofiq belgilandi: Versal tinchlik shartnomasi, Sevr tinchlik shartnomasi, San-Remo konferensiyasi, Lozanna tinchlik shartnomasi.[5]

Mandatli hududlar davlatchilikning rivojlanish darajasiga ko‘ra uch guruhga bo‘lingan: “A”, “B” va “S”.

“A” guruhiga ilgari Usmoniy imperiyasi hukmronligida bo‘lgan, Majburiy ma‘muriy yordam ko‘rsatilgach, mustaqil davlatga aylangan hududlar: Iroq, Falastin, Suriya, Transiordaniya(Urdun), Livan hududlari kiritilgan hamda ularni bosshqarish Buyuk Britaniya va Fransiyaning chekiga tushgan.

“B” guruhiga esa G‘arbiy va Markaziy Afrikadagi sobiq nemis koloniyalari, ular mandat egasining bevosita boshqaruviga bo‘ysungan (1922-yil 22-iyulda berilgan mandatlar): Ruanda-Urundi, Tanganika, Kamerun va Togo yerlari kiritilib ular ustidan Belgiya, Buyuk Britaniya va Fransiya nazorati o‘rnatilgan.

“S” guruhi tarkibida Janubiy G‘arbiy Afrika va Okeaniyadagi sobiq nemis koloniyalari, ularning ajralmas qismi sifatida mandat egalarining bevosita nazorati ostida o‘tkazildi. Bular: Germaniya Yangi Gvineyasi (Avstraliya) 1920-yil 17-dekabrda; Germaniya Samoasi(Yangi Zelandiya) 1920-yil 17-dekabrda G‘arbiy Samoa deb o‘zgartirildi; Janubiy Tinch okeani hududi (Yaponiya). Germaniya Janubiy G‘arbiy Arikasi 1922-yil 1-oktabrdan 1878-yildan Kap koloniyasi tarkibiga kirgan Uolfish-Bey shahri, 1946-yilda BMT Janubi-G‘arbiy Osiyoni Janubiy Afrikan Ittifoqining vasiylik tayinlangan hududi sifatida tan olishdan bosh tortdi (1961-yildan, Janubiy Afrika Respublikasi). 1968-yilda BMT Namibiya nomini tasdiqladi, 1990-yil 21-martdan boshlab Namibiya mustaqil davlatga aylanadi (Uolfish-Bey shahrisiz), 1994-yil 28-fevralda Uolish-Bey shahri va Pingvin orollari Namibiyaga o‘tkazildi.



Xalqaro huquq bo'yicha Mandat yaratish uchun uchta bosqich talab qilinadi: (1) Asosiy Ittifoqdosh va Ittifoq davlatlari o'z a'zolaridan biriga yoki uchinchi bir davlatga mandatni taqdim etadi; (2) asosiy vakolatlar Millatlar Ligasi Kengashiga ma'lum bir vakolatning muayyan belgilangan hududda mandat asosida tartibga solinishi to'g'risida rasmiy ravishda xabar beradi va (3) Millatlar Ligasi Kengashi mandat hokimiyatining tayinlanganligini rasman tan oladi hamda ular xalqaro shartnoma qoidalariga muvofiqligini aniqlagandan so'ng kengash uni mandat egasi deb hisoblaganligi to'g'risida ma'lum qiladi va shu bilan birga uni kelishuv shartlari to'g'risida xabardor qiladi." [6][7]

Nazariy jihatdan, mandatlarining bajarilishi Millatlar Ligasining Doimiy mandatlar komissiyasi tomonidan nazorat qilingan, ammo komissiyada majburiy vakolatlarining birortasida o'z irodasini bajarish uchun haqiqiy mexanizm va vakolat yo'q edi.

Shunday bo'lsa ham **Millatlar ligasi nizomining 22-moddasi oxirgi bandlarida** quyidagicha belgilab qo'yilgan edi: "Mandat sohibi bo'lgan davlat tomonidan amalga oshiriladigan vakolat, nazorat yoki ma'muriyat darajasi, agar ilgari Millatlar Ligasi a'zolari tomonidan kelishilgan bo'lmasa, oshkora ravishda Kengash tomonidan har bir holatda belgilangan bo'lishi lozim. Mandatlarga rioya qilish bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha yillik hisobotlarni qabul qilish va tekshirish hamda zarur maslahatlar berish uchun doimiy komissiya tuziladi." Mandat tizimi o'z davri uchun innovatsion bo'lsa-da, mustamlakachilik davridagi hukmron paternalistik munosabatlarni aks ettirdi. Majburiy kuchlar, odatda Yevropa mustamlakachi davlatlari, bu hududlarni boshqarish uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oldilar. Biroq, tizim to'g'ridan-to'g'ri anneksiya bilan farq qilardi. Mandat olgan davlatlar quyidagilarga majbur edi:

- Aholi farovonligi va rivojlanishiga ko'maklashish;
- Inson huquqlariga hurmatni rag'batlantirish;
- Hududlarga o'zini o'zi boshqarish(avtonomiya) yoki mustaqillikka erishish(suverenitet)da yordam berish.[8]



Mandat tizimi o'zining cheklovlariga qaramay, xalqaro huquqning kelajakdagi rivojlanishi uchun zamin yaratadi. U mustamlakachi davlatlarning o'z nazorati ostida bo'lsa ham, ushbu hududlarni boshqarish paytida yuzaga keltirgan oqibatlari va xatti-harakatlari uchun xalqaro javobgarlik mavjudligi tamoyilini o'rnatdi. Bundan tashqari, o'z taqdirini o'zi belgilashga qaratilgan "vasiylik" tushunchasi, garchi imperialistik bo'lsa ham, mustamlaka qilingan xalqlarning huquqlari uchun yangi xalqaro huquq bazasi shakllanishi uchun qolip bo'ldi.

Eng bahsli mandatlardan biri Buyuk Britaniyaga ishonib topshirilgan Falastin edi. 1917 yilgi *Balfur deklaratsiyasida* Falastin "yahudiy xalqi uchun milliy vatan" bo'lishi va'da qilindi va mavjud ko'pchilik arablar qatorida o'sib borayotgan yahudiy aholisi bilan murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi. Britaniya mandati bu milliy keskinliklarni muvozanatlash uchun tirashdi va alaloqibat hech qanday yechim topa olmadi. Falastin atrofidagi hal etilmagan taranglik bugungi kunda hali hanuz sobiq Mandat tizimining asriy davom etayotgan oqibatlarini ko'rsatmoqda.[9] Mandat tizimining mustamlaka davlatlarning to'liq suverenitetga erishishdagi o'рни bahsli bo'lsa-da, bu davrda ba'zi hududlar mustaqillikka erishganining guvohi bo'lishimiz mumkin. 1939 yilga kelib uchta sobiq mandatli hudud (Iroq, Transiordaniya va Misr) amalda va rasman mustaqil edi.[10]

Mandat tizimi 1946 yilda BMTning vasiylik tizimi bilan almashtiriladi. Chunki mandat instituti mohiyatan mustamlakachilikning tizimlashgan hamda xalqaro huquqda tan olingan ko'rinishi bo'lib qolayotgan edi. Mustamlaka davridan beri qaram hududlarni ozod va mustaqillikka chiqarish jarayonini nazorat qilish uchun BMT qoshida Vasiylik kengashini shakllantirish qoidalari 1945 yilda San-Fransisko konferensiyasida qabul qilingan va **Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 12-bobida** belgilangan. Ushbu qaram hududlar (koloniyalar va mandatli hududlar) Millatlar Ligasi mandat tizimining vorisi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi tomonidan yaratilgan xalqaro vasiylik tizimiga o'tkazilishi kerak edi. Oxir-oqibat, o'n bitta hudud vasiylikka o'tkazildi: ulardan yettitasi Afrikada va to'rttasi Okeaniyada edi. Vasiylik tayinlangan hududlardan o'ntasi ilgari Millatlar Ligasi mandati bo'lgan; o'n birinchi o'rinda Italiya Somalilandi



edi. Vasiylik tizimi to'g'risidagi qoidalarni amalga oshirish uchun Bosh Assambleya 1946 yil 14 dekabrda *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Vasiylik kengashini tashkil etishni nazarda tutuvchi 64-rezolyutsiyani* qabul qildi. Vasiylik kengashi 1947 yil mart oyida o'zining birinchi sessiyasini o'tkazadi.[11] Yangi tuzilgan xalqaro vasiylik instituti BMTning 6 asosiy organlaridan biri hisoblanib, BMT Nizomining 75-moddasida o'z ta'rifini topgan bo'lsa, 76-moddada esa ushbu institutning maqsad va vazifalari belgilab o'tiladi.[12]

75-modda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti keyinchalik alohida bitimlar bilan o'ziga kirishi mumkin bo'lgan hududlarni boshqarish va shu hududlarni kuzatib turish uchun o'z rahbarligida xalqaro vasiylik tizimini tuzadi. Bu hududlar bundan buyon vasiylik hududlari deb ataladi.

Ko'rishimiz mumkinki, yuqoridagi moddada vasiylik tizimini tashkil etishning obyektiv omillari keltirib o'tilgan. Endi esa ushbu tizimning vazifalariga e'tibor qaratsak,

76-modda

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu Nizomning birinchi moddasida bayon qilingan maqsadlariga muvofiq vasiylik tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash;*
- b) Vasiylik hududlaridagi aholining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga, maorif sohasidagi taraqqiyotiga, har bir hudud va undagi xalqlarning o'ziga xos tomonlariga mos holda va u xalqlarning erkin bildirilgan xohishlarini inobatga olib va vasiylik to'g'risidagi har bir shartnomada ko'zda tutilgan shartlarga ko'ra, ularning o'z-o'zini boshqarishi yoki mustaqillik yo'lidagi taraqqiyotiga yordam berish;*
- c) Inson huquqlariga va kishilarning irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutlardan qat'i nazar, hamma uchun asosiy erkinliklarga hurmat bilan qarashni va jahon xalqlarining bir-biriga bog'liqligini tan olishni rag'batlantirish;*



d) *Tashkilot A'zolariga va ularning fuqarolariga ijtimoiy, iqtisodiy va savdo sohalarida teng munosabatda bo'lishni, shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga hech qanday ziyon yetqazmagan holda va 80-moddadagi qoidalariga rioya qilish sharti bilan odil sud yuritishda ularga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydi.*

Vasiylik tizimi mandat tizimidan bir necha asosiy jihatlari bilan farq qiladi:

O'z taqdirini o'zi belgilashga kuchliroq urg'u: BMT Nizomida vasiylik hududlarning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili aniq belgilab qo'yilgan, bu Millatlar Ligasi Paktining mustamlakachi tiliga nisbatan sezilarli o'zgarishdir (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi, 76-modda).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti nazorati: Millatlar Ligasining doimiy Kengashidan ko'ra ko'proq vakillik organi bo'lgan BMT Bosh Assambleyasi Vasiylik tizimini nazorat qilib, vasiy subyektlarning harakatlari ustidan kengroq xalqaro kontrol o'rnatilishini ta'minladi.

Vasiylik hududlarining ikkita toifasi ajratildi: Xavfsizlik Kengashi vakolati ostidagi "strategik" hududlar (birinchi navbatda, xavfsizlik masalalariga qaratilgan) va Bosh Assambleya tomonidan nazorat qilinadigan "oddiy" hududlar (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga e'tibor qaratilgan) [13].

Nizomga ko'ra, Vasiylik Kengashi teng miqdordagi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlarning vasiylik hududlarni bevosita boshqaruvchi va nazoratida bo'lmagan davlatlardan iborat bo'lishi kerak edi. Shunday qilib, Kengash (1) vasiylik hududlarini boshqaradigan BMTning barcha a'zolaridan, (2) Xavfsizlik Kengashining beshta doimiy a'zosidan va (3) boshqaruvchi va boshqaruvchi bo'lmagan a'zolar sonini tenglashtirish uchun zarur bo'lgan boshqa bir qancha a'zo davlatlardan iborat bo'lishi kerak edi. Vaqt o'tishi bilan vasiylik hududlari mustaqillikka erishgach, Vasiylik kengashining hajmi va ish yuki qisqardi. Oxir-oqibat, Vasiylik Kengashi faqat Xavfsizlik Kengashining doimiy besh a'zosini (Xitoy, Fransiya, Sovet Ittifoqi/Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya) va vasiylik tayinlangan hududni boshqaruvchi yagona doimiy a'zo davlat AQShni o'z ichiga oldi.



86-modda

1. Vasiylik Kengashi Birlashgan Millatlar Tashkilotining quyidagi A'zolaridan iborat bo'ladi:

- a) Vasiylik hududlarini boshqaruvchi Tashkilot A'zolaridan;
- b) 23-moddada nomlari ko'rsatilgan vasiylik hududlarini boshqarmaydigan Tashkilot A'zolaridan;
- c) Bosh Assambleya tomonidan uch yillik muddatga saylangan, Vasiylik Kengashi a'zolarining umumiy soni vasiylik hududlarini boshqaruvchi va boshqarmaydigan Tashkilot A'zolari orasida teng bo'linishi uchun zarur bo'ladigan miqdordagi Tashkilotning boshqa A'zolaridan.

2. Vasiylik Kengashining har bir a'zosi yuqori malakali mutaxassis shaxsni o'zining Vasiylik Kengashidagi vakili etib tayinlaydi.

Qolaversa, **BMT Nizomini 87-moddasiga** muvofiq Bosh Assambleya qoshidagi Vasiylik Kengashiga bir necha vazifalar yuklatiladi:

- a) Boshqaruvchi hokimiyat taqdim qilgan hisobotlarni ko'rib chiqish;
- b) Boshqaruvchi hokimiyat bilan maslahatlashgan holda iltimosnomalarni qabul qilish va ko'rib chiqish;
- c) Boshqaruvchi hokimiyat bilan kelishilgan muddatlarda tegishli vasiylik hududlariga vaqti-vaqti bilan borib turish; va
- d) Vasiylik haqidagi bitimlarning shartlariga ko'ra, yuqorida eslatilgan va yana boshqa ishlarni bajarish.

1994-yilda Palau davlat o'z mustaqilligiga erishishi bilan mazmunan olib qaraganda boshqa vasiylik hududlari qolmaydi.

Mandat vakolati Yaponiyadan olingan Tinch okeanining strategik vasiylik tayinlangan hududi xavfsizlik nuqtai nazaridan Vasiylik kengashi emas, balki Xavfsizlik Kengashi nazorati ostida bo'lgan maxsus toifasiga kiritiladi[14], Janubiy Afrika esa o'zining mandati ostida bo'lgan hududini ushbu yangi tizimga joylashtirishdan bosh tortgan edi.[15] Ushbu hududlarda asl suverenitet kimga tegishli bo'lganligi o'n yillar davomida keng muhokamalarga sabab bo'lgan. Tinch



okeanining mandat ostidagi hududiga kelsak, Amerika Qo'shma Shtatlari Shimoliy Mariana Orollari Hamdo'stligi bilan kelishuv bitim va Mikroneziya Federativ Shtatlari hamda Marshall Orollari Respublikasi bilan esa erkin birlashma to'g'risidagi pakti imzolaydi. Ular 1986-yil kuzida kuchga kirgandan so'ng, ularga nisbatan vasiylik tugatilganligi e'lon qilinadi.

AQSh bilan siyosiy ittifoqni nazarda tutuvchi ushbu tartib Vasiylik kengashi tomonidan o'z taqdirini o'zi belgilashning qonuniy amalga oshirilishi sifatida qabul qilindi. Biroq, Palau Respublikasi bilan taklif qilingan Erkin birlashma to'g'risidagi shartnoma (sobiq vasiylik tayinlangan hududlarning oxirgi tarkibi) yadroviy yoki qurolli kemalar va samolyotlarning Palau suvlari va havo bo'shlig'i orqali tranziti bo'yicha kelishmovchiliklar natijasida kuchga kirmadi va shuning uchun AQSh vasiylik shartnomasi bo'yicha boshqaruvchi organ sifatida faoliyat olib borishda davom etdi. Bu muammolar oxir-oqibat hal qilindi[16]. Janubiy G'arbiy Afrika mintaqasi Birinchi Jahon urushi tugaganidan keyin Janubiy Afrika davlati tomonidan mandat sifatida boshqarilgan, ikkinchi jahon urushidan keyin hududni vasiylik tizimiga berishdan bosh tortgan. Shundan so'ng, 1950-yilda Xalqaro Sud Janubiy G'arbiy Afrikaning xalqaro maqomi bo'yicha o'zining konsultativ xulosasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mandatlangan hududni vasiylik tayinlangan hududga o'tkazish bo'yicha hech qanday huquqiy majburiyat bo'lmasa-da, Janubiy Afrika hali ham mandat shartnomasi va Millatlar Ligasi paktining shartlari va o'sha paytda o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishi lozim ekanligi ta'kidlanadi.[17]

Sud Janubiy Afrikaning yolg'iz o'zi hududning xalqaro maqomini o'zgartirish imkoniyatiga ega emasligini ta'kidlaydi. Bu vakolat Millatlar Ligasining vorisi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining roziligi bilan harakat qiladigan Janubiy Afrikaga tegishli edi. Ushbu qarordan mantiqan kelib chiqadigan narsa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Millatlar Ligasi amaliyotiga rioya qilgan holda Janubiy Afrikaning Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorlariga quloq solishdan bosh tortishi natijasida kelib tushgan shikoyatlarni tinglash vakolati edi.[18]



1962-yilda Xalqaro sud sobiq Liganing ikki afrikalik a'zosi bo'lgan Efiopiya va Liberiyaning Janubiy Afrika mandat shartlarini va shu tariqa xalqaro huquq normalarini buzganligi haqidagi ishni ko'rib chiqdi. Sud dastlab nizoning mohiyatini ko'rib chiqish vakolatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Biroq, ishning ikkinchi bosqichiga ko'ra, sud (sud hay'atining tarkibi biroz o'zgaradi) Efiopiya va Liberiyaning da'vo mavzusi bo'lgan Janubiy G'arbiy Afrika mandati va uning nazorati bo'yicha hech qanday qonuniy manfaatlari yo'q degan qarorga keldi, va shunga ko'ra ularning arizalari rad etiladi.[19]

Vasiylik tizimining muvaffaqiyatiga bir qancha omillar yordam berdi:

Xalqaro nazoratning kuchayishi: BMTning ishtiroki xalqaro nazoratni va boshqaruv vakolatlarini o'z majburiyatlarini bajarish uchun vasiylikni bo'yniga olgan davlatlarga bosim o'tkazishni ta'minladi.

O'z taqdirini o'zi belgilashga e'tibor qaratish: BMT Nizomida o'z taqdirini o'zi belgilashga alohida e'tibor qaratilishi vasiylikka olingan hududlarni rivojlantirishning aniq maqsadini va ularning intilishlari uchun huquqiy asosni yaratdi.

Mustamlakachilikka qarshi kayfiyatning jiddiylashishi: Urushdan keyingi davrda davlatlar mustamlakachilikka qarshi kayfiyatning global o'sishiga guvoh bo'lishdi, vasiy davlatlarning majburiyatlarini to'laqonli bajarishi ustidan nazorat va mustamlaka qilingan xalqlarning huquqlarini hurmat qilish uchun bosim kuchaydi.

Natijada 1994-yilga kelib vasiylik hududlarining barchasi mustaqillikka erishdi, faqatgina Shimoliy Mariana orollari 1986-yilda o'zaro hamdo'stlik shartnomasi asosida AQSH yurisdiksiyasining tarkibiga o'tadi.[20]

Mandatlar va vasiylik hududlar tizimlari nomukammal bo'lsa-da, xalqaro huquq evolyutsiyasi va dekolonizatsiya jarayonining hal qiluvchi bo'limlari hisoblanadi. Ular hududlarni boshqarish uchun xalqaro javobgarlik tamoyilini o'rnatdilar va zamonaviy xalqaro huquqning asosiy toshi bo'lgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga zamin yaratdilar. Biroq, mustamlakachilik merosi 21-asrda ham bir talay muammolarni keltirib chiqarishda davom etmoqda. Ko'pgina sobiq mandatli va vasiylik tayinlangan hududlar qashshoqlik, tengsizlik, siyosiy



beqarorlik va zaif infratuzilma muammolari bilan kurashmoqda. Bu qiyinchiliklar qisman ko'pincha mustamlakachilik hukmronligini tavsiflovchi notekis rivojlanish va resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi sobiq vasiylik hududlarida etnik mojarolar keng ko'lamli genotsid harakatlariga aylanib ketdi. Ruanda misolida olib qaraydigan bo'lsak, bu mustamlakachilik va vasiylik davrida kolonial davlat ma'muriyatining aholini etnik sabablarga ko'ra bo'lib boshqarishi bilan bog'liq xato siyosat natijasi edi.[21] Bir necha bor o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sobiq mandatli va vasiylik tayinlangan hududlarning katta qismi zaif boshqaruv, qashshoqlik va mojarolar bilan ajralib turadigan "mo'rt davlatlar" sifatida tasniflanadi.[22] Bu mustamlakachilikning tarixiy tajribasi va hozirgi rivojlanish muammolari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Vasiylik kengashi o'z vazifasini bajarib, 1994 yil 1 noyabrda o'z faoliyatini to'xtatdi va Garchi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga ko'ra u qog'ozda mavjud bo'lsa-da, uning kelajakdagi roli va hatto mavjudligi noaniqligicha qolmoqda. Vasiylik Kengashida prezident va vitse-prezident[23] bor, bu rasmiylarning yagona vazifasi vaqti-vaqti bilan BMTning boshqa agentlik va organlari rahbarlari bilan uchrashishdan iborat bo'lib qolgan. Lekin hozir amalda hech qanday faoliyat olib borishmaydi.

1994 yil 25 mayda qabul qilingan qaror bilan Kengash har yili yig'ilish majburiyatini bekor qilish uchun o'z tartib qoidalariga o'zgartirishlar kiritdi va zarurat bo'lganda - o'z qarori yoki Prezident qarori yoxud Bosh Assambleya a'zolarining yoki Xavfsizlik Kengashidagi ko'pchilikning iltimosiga binoan yig'ilishga kelishib olinadi.[24]

Vasiylik Kengashining qayta tiklanishi garchi u hali hanuz BMT Ustavida yozilgan bo'lsa ham bir necha omillarga bog'liq. Vasiylik kengashini qayta tiklash tarafdorlari uning xalqaro huquqdagi zamonaviy muammolarni hal qilishda asqatadigan bir necha afzalliklarini ta'kidlaydilar. Thomas Weiss o'zining "Xalqaro huquq va jahon tartibi" [25] kitobida ta'kidlaganidek, kengashning maxsus o'rnatilgan nazorat va tegishli yo'l-yo'riq bilan ta'minlash maqsadida yaratilgan mexanizmi hozirgi vaziyatlarga moslashtirilishi mumkin. U boshqaruvda alohida bir



muammolarga duch kelgan hududlar uchun ajratilgan maxsus institut bo'lish vazifasini taklif qilishi mumkin. Ba'zilarining fikricha yangilangan kengash mustamlakachilikka hamda mustamlakachilikning salbiy oqibatlariga qarshi kurash bilan band bo'lgan post-kolonial millatlarga o'ziga kelib olish, mustahkam iqtisodiy va siyosiy asoslarga tamal toshini qo'yish hamda ushbu yerlarda nisbatan barqaror boshqaruv tuzilmalarini barpo etishda ancha qo'l kelishi mumkin. Shuningdek, o'z taqdirini o'zi belgilash haqidagi bahsli da'volar yoki ichki mojarolar kabi murakkab siyosiy vaziyat girdobida qolib ketgan hududlar masalan Falastin, G'arbiy Sahroyi kabir kabi hududlar uchun anneksiya qilgan davlatlar bilan o'zaro muloqotni tashkillashtirish va xalqaro hamkorlikni osonlashtirish uchun BMTning maxsus organi o'laroq yordam berishi istiqbollari mavjud.

Ushbu potentsial imkoniyatlarga qaramay, Vasiylik kengashini qayta tiklashda bir necha to'siqlarga duch kelinishi tabiiy. Richard Folk "Jahon tartibining oxiri" [26]) asarida ta'kidlaganidek, BMT Xavfsizlik Kengashining murakkab siyosiy xarakterida asosiy muammo yotadi. A'zo davlatlar ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi manfaatlarga ega bo'lib, bu kengash faoliyatini qayta tiklash bo'yicha konsensusga erishishni qiyinlashtiradi. Qolaversa, aksariyat davlatlar yangi dunyo status-kvosiga moslashib bo'lishgan va mustamlakalarni ozod etish va dekolonizatsiya davri allaqachon o'z yakuniga yetgan deb hisoblashadi. Vasiylik kengashi faoliyatini qayta jonlantirish uchun uni tiklash BMT nizomi va qator konvensiya, pakt va boshqa turli xalqaro shartnomalarda o'z ifodasini topgan davlatlarning suvereniteti, ichki ishlarga aralashmaslik, chegaralar daxlizligi, global xavfsizlik tamoyillariga zid kelib qolishi va xalqaro nizolarni qo'zg'ashi mumkin.

Vasiylik kengashini qayta tiklashning huquqiy oqibatlari murakkab, ammo ularni nazorat ostiga olish mumkin. BMT Nizomi texnik jihatdan hali ham kengashning ishlashiga ruxsat beradi. XII bobda uning tuzilishi va maqsadlari ko'rsatilgan[27]. Biroq, uning avvalgi qo'l ostidagi faol vasiylikka olingan hududlar qolmagan.

XULOSA



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mandatli va vasiylik tayinlangan hududlar mustamlaka qilingan davlatlar uchun dekolonizatsiya jarayonida va o'zini o'zi boshqarishning o'rnatilishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu tizimlar orqali ta'minlangan xalqaro nazorat va hokimiyatning bosqichma-bosqich topshirilishi hududlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, pirovardida ularning mustaqilligiga olib keldi. Mandatli va vasiylik tayinlangan hududlar tizimining oqibatlari va umumiy amaliyotini zamonaviy xalqaro huquq sohasida yaqqol ajratib ko'rishimiz mumkin, boisi bu hududlarni boshqarishda olingan tamoyillar va tajribalar kelgusida xalqaro huquq subyekti hisoblanmish davlatlarning suvereniteti, ularning suveren tengligi masalalari, xalqaro huquqning umum tan olingan prinsiplari va nizolarni hal qilish bo'yicha bahs-munozalar, muzokaralar sur'atiga ta'sir qiladi.

Bu o'rinda garchi juda ham ko'p qusur va kamchiliklari bo'lsa ham xalqaro huquqning keying rivojlanish trayektoriyasini belgilab bergan hamda bir necha davlatlarning ozodlikka chiqishida muhim o'rin tutgan mandate tizimi va uning mantiqiy davomi va takomillashgan shakli bo'lgan vasiylik institutining ahamiyatini to'g'ri baholash muhim hisoblanadi. Ortiq rivojlangan mamlakatlarning o'zlariga nisbatan kuchsiz davlat hududlarini butunlay yoki qisman bosib olinishiga yo'l bermaslik hamda hali mustaqillikka erishib bo'lmagan o'lkalarga har tomonlama yordam berish haqida gap ketganda BMT qoshidagi Vasiylik kengashini faoliyatini qayta tiklash ustuvor vazifa kasb etishi mumkin lekin bunda ham yetarlicha muammolar yuzaga kelishi muqarrar.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. "Legal Consequences for States of the Continued Presence of South Africa in Namibia (South West Africa) notwithstanding Security Council Resolution 276 (1970)" International Court of Justice: 28–32. 21 June 1971.
2. Matz, 2005, pp 70-71
3. Pedersen, Susan (2012). ["Settler Colonialism at the Bar of the League of Nations"](#). In Elkins, Caroline; Pedersen, Susan (eds.). [Settler Colonialism in the Twentieth Century](#) (published 2005)



4. <https://www.britannica.com/topic/mandate-League-of-Nations>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mandat_hududlar
6. Quincy Wright, Mandates under the League of Nations, Univ.Chicago Press, 1930.
7. Temperley, History of the Paris Peace Conference, Vol VI, pp. 505–506; League of Nations, The Mandates System (official publication of 1945); Hill, Mandates, Dependencies and Trusteeship, pp. 133ff.
8. League of Nations Covenant, Art. 22 (1919). Retrieved from https://avalon.law.yale.edu/20th_century/leagcov.asp
9. British Foreign Office. (1917, November 2nd). The Balfour Declaration. Retrieved from https://en.wikipedia.org/wiki/Balfour_Declaration
10. <https://www.pbs.org/wgbh/globalconnections/mideast/timeline/text/time3.html>
11. <https://www.un.org/en/about-us/trusteeship-council>
12. <https://www.un.org/en/about-us/un-charter>
13. ‘General Law-Making Processes’, in C.C. Joyner (ed.), The United Nations and International Law (1997), 27 at 58.
14. O. McHenry, Micronesia: Trust Betrayed, New York, 1975; Whiteman, Digest, vol. I, pp. 769–839
15. Judge McNair, International Status of South West Africa, ICJ Reports, 1950, pp. 128, 150
16. Security Council resolution 956 (1994).
17. ICJ Reports, 1950, pp. 128, 143–4; 17 ILR, pp. 47, 57–60.
18. International law / Malcolm N. Shaw Eighth edition. | Cambridge, United Kingdom ; New York, NY, Cambridge University Press, 2017.
19. ICJ Reports, 1962, pp. 141 and 143
20. U.S. Department of State Foreign Affairs Manual Volume 7- Consular Affairs. U.S. Department of State. January 3, 2013
21. Prunier, G. (1995). The Rwanda crisis: History and genocide. Columbia University Press.



22. Overseas Development Institute. (2020). Fragile states index 2020. <https://odi.org/>
23. <https://press.un.org/en/2017/tr2433.doc.htm>
24. UN Department of Political Affairs. (n.d.). The Trusteeship System and Trust Territories. Retrieved from <https://www.un.org/dppa/decolonization/en/history/international-trusteeship-system-and-trust-territories>
25. <https://www.cambridge.org/core/books/abs/international-law-and-world-order/introduction>
26. The End of World Order: Essays on Normative International Relations. By Richard Falk. Written under the auspices of the Center for International Studies, Princeton University. New York and London: Holmes & Meier, 1983. Pp. x, 358.
27. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ 1.1. Lukashuk, A.X. Saidov; - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. 392 b.